

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI BOLALARDA MUSTAQIL FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISH

Salimova Dilmira Farxodovna

Alfraganus Universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, PhD

Annotasiya: Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'nalishlari keltirilgan. Bo'lajak tarbiyachilar va ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va metodlari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, o'yin, bo'lajak tarbiyachi, ijodiy kompetensiya, ta'lim-tarbiya, qobiliyat, faoliyat, metod

Аннотация: В статье представлены направления развития творческих компетенций будущих педагогов. Основные направления и методы развития детей дошкольного возраста рекомендованы будущим педагогам и родителям.

Ключевые слова: дошкольный возраст, игра, будущий педагог, творческие компетенции, образование, способность, деятельность, метод

Abstract: This article presents areas for developing creative competencies in future teachers. Key areas and methods for developing preschool-age children are recommended for future teachers and parents.

Key words: preschool age, game, future teacher, creative competencies, education, ability, activity, method

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar doirasida ta'lim sifatini oshirish, har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqdir.[2]

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun ham maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadlari hamda davlat oldiga qo'yiladigan vazifalarni belgilaydi. Unda maktabgacha ta'lim bolalarni har tomonlama rivojlantirish, umumiy o'rta ta'limga tayyorlash, shuningdek ijtimoiy, ma'naviy va psixologik jihatdan shakllantirishga xizmat qilishi belgilangan.[1]

Maktabgacha ta'lim va tarbiya borasida olib borilayotgan islohotlar, amaliyotga tadbiq etilayotgan qaror va qonunlarda belgilanganidek, farzandlarimizni davr talabiga mos, go'zal axloqli, komil inson qilib tarbiyalashdek muqaddas vazifalarni amalga oshirishimizga imkon yaratiladi. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashab tarbiyalanishni boshlaydi va maktabgacha yoshga yetganida bolaning kun tartibi, ta'lim-tarbiya jarayoni o'zgarib boshlaydi. Bu esa tarbiyachilardan bolalar bilan ishlash jarayonida atrof-olam ob'ektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish; ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi. Xususan, "Shaxsdagi ijodkorlik xususiyatlarini qanday tarbiyalash mumkin?"- degan dolzarb muammo bugun paydo bo'lib qolmagan. Aksincha azal-azaldan ijodkorlikning boshlanishi bo'lgan insondagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi bevosita bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi pedagoglarni ham, tadqiqotchilarni ham hozirgi

davrgacha qiziqtirib kelmoqda. Ta'lim va tarbiya, shaxsning jamiyatda shakllanishi, qobiliyatlarni rivojlantirish hanuzgacha pedagogikaning eng dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi ko'p qirrali pedagogik- psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir.

Bo'lajak tarbiyachilar rivojlangan ijodiy kompetensiyalari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy rivojlanishini, mustaqil fikrlay olishini, ijodiy qobiliyatini va kelajakda o'z muammolarini o'zi hal olish salohiyatini namoyon qiladilar. Buning uchun faoliyatlar jarayonida o'yinlar, suhbatlar, turli ko'rgazmalar va ijodiy mashg'ulotlardan keng foydalanish ahamiyatlidir.

Ijodiy kompetensiyani ta'riflar ekanmiz, unda har bir maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini fikrlashlari, tasavvurlarining kengligi va albatta yangi g'oyalarni yarata olish qobiliyatiga ega bo'lishlarini tushunishimiz mumkin.

Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalari quyidagilar orqali namoyon bo'ladi.

- Ta'lim tarbiya jarayonida an'anaviy fikrlashdan farq qilgan holda o'zgacha yechim topa olishlari

- Faoliyatlar jarayonida qanday qilib bolalarni diqqatini jalb qila olish mumkinligi haqida turlicha yo'llarni o'ylab topishi

- Mashg'ulotlarga kreativ yondashishi yoki o'zi yaratgan faoliyat ishlanmalarini jarayonga qo'llay olishi

- Rasm, musiqa, she'r yoki qo'shiq orqali hissiyot va g'oyalarini yetkazishi

Tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun teatrlashtirilgan o'yinlardan, ertaklarni o'qish va takrorlashdan, shuningdek, tasavvurni, nutqni va hissiy sohani rivojlantiruvchi turli ijodiy faoliyatdan foydalanishlari muhimdir. Buning uchun ular uylarida yoki ta'lim jarayonida liboslar va rekvizitlar bilan maxsus ijodiy burchak yaratishlari, bolalarning mustaqilligi va tasavvurini rag'batlantira olishlari, o'z g'oyalarini hayotga tatbiq eta olishlari va bolalar bilan ishlash jarayonida ularning muvaffaqiyatsizlikka uchraganliklari taqdirida qo'llab-quvvatlay olishlari kerak.

Bo'lajak tarbiyachilar va ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining quyidagi asosiy yo'nalishlarini tavsiya etamiz:

1. Teatrlashtirilgan o'yinlardan foydalanish:

- maktabgacha yoshdagi bolalarga dramatisatsiyalashgan o'yinlarni o'tkazishni, ularga maxsus kiyimlar kiyishini, niqoblardan va qo'g'irchoqlardan foydalanishlarini taklif qiling.

- bolalarga o'z hikoyalari va rollarini yaratish, shuningdek, o'z g'oyalarini taklif qilish imkonini beradigan o'yin muhiti uchun sharoit yarating.

2. Kitoblar bilan ishlash:

- ertak va boshqa bolalar yoshiga mos adabiy asarlarni o'qib bering.

- bolalarni hikoyalarni qayta aytib berishga, o'z fikrlari bilan ertak yoki hikoyani yakunini yaratishga yoki hatto qofiyalar va she'rlar yozishga undash.

- farzandingiz bilan o'qiganlari haqidagi taassurotlarini muhokama qiling va o'zlarini shu qahramonlar o'rnida tasavvur qilishlarini so'rang.

3. Ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish:

- ijodiy qobiliyatlarini va dunyoviy fikrlashlarini rivojlantirish uchun chizishga, loy ishiga va qurish-yasashga qiziqishlarini rag'batlantiring.

- tasavvur va mavhum fikrlashni rivojlantiradigan o'yinlarni qo'shing.

- uylar yoki hatto butun shaharlar kabi noyob dizaynlarni yaratish uchun turli xil rang va shakllardagi qismlardan foydalanishingiz mumkin.

4. Rag'batlantiruvchi muhit yaratish:

- chizilgan ishlar, loy ishlari va qurish-yasash materiallari bilan tarkib topgan o'z "ijodiy burchak"larini o'rnatish.

- atrof-muhitlarini ularning tasavvurlarini rag'batlantiradigan o'yinchoqlar bilan to'ldiring.

- farzandingizning jismoniy rivojlanishiga yordam bering (yirik va mayda motorikalarini muvofiqlashtirish). [3]

Yuqorida keltirilgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib borish davomida biz quyida keltirilgan metod va yondashuvlarni taklif qilamiz:

1. Bolalar faoliyatlarida mustaqilligini qo'llab-quvvatlang: maktabgacha yoshdagi bolalarga tanlov va harakat erkinligini ta'minlang, ko'rsatgan tashabbuslari va mustaqil bajarganliklarini rag'batlantiring.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish: yuz ifodalari, imo-ishoralar, intonatsiya, pantomimika va ovoz modulyatsiyasiga e'tibor bering.

3. Qo'llab-quvvatlay oladigan sheriklari bo'ling: kerak bo'lganda yordam bering va bolalarning qobiliyatiga ishonib. (sen uddalayapsan yoki sen qila olasan)

4. Ijobiy muhit yarating: Ishonchli munosabatlar o'rnatish va bolani qo'llab-quvvatlang, ayniqsa kuzatilishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizliklar vaqtida.

5. Jarayonning qiymatini ko'rib chiqing: unutmangki, bola uchun nafaqat natija, balki ijodiy jarayonning o'zi ham qimmatlidir.

Xulosa qilib aytganda jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida bola uchun ijodiy kompetensiyaga ega tarbiyachilar bilan birgalikda olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni sog'lom ijtimoiy muhit yaratish, shu bilan birga ijtimoiy fazilatlarini ochib beradigan rivojlantiruvchi o'yinlar vositasida oilaviy tarbiya uslublarini o'rganish, maktabgacha ta'lim-tarbiyaning shart-sharoitlariga ko'nikish, maktab ta'limiga sifatli tayyorlashning imkoniyatlarini sezilarli rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16- dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ 595-son qonuni 1-bob 4-moddasi

2. Ilk qadam davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan 2-nashri) 2022-yil

3. D.F.Salimova "Syujetli-rolli o'yinlar vositasida maktabgacha o'rta guruh bolalarining axloqiy sifatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" nomli monografiya –Toshkent 2025